



**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

TARIX FAKULTETI

**“MILLIY ISTIQLOL G’OYASI HUQUQ VA MA’NAVIYAT
ASOSLARI” TA’LIM YO’NALISHI**

KURS ISHI

**Mavzu. “Jamiyat, davlat va huquq” mavzusini o’qitishda
pedagogik texnologiyalardan foydalanish.**

SHernaev O.

Ilmiy rahbar Bekbaeva D.

Toshkent-2013

**Mavzu. “Jamiyat, davlat va huquq” mavzusini o’qitishda
pedagogik texnologiyalardan foydalanish.**

Reja.

Kirish.

I. BOB. “Jamiyat, davlat va huquq” mavzusining nazariy asoslari.

1.1. “Jamiyat”, “Davlat” va “Huquq” tushunchalari.

1.2. “Jamiyat, davlat va huquq” mavzusini o’qitishga doir DTS, o’quv dasturi
va o’quv adabiyotlarining tahlili

II. BOB. “Jamiyat, davlat va huquq” mavzusining ta’lim texnologiyasi.

2.1. “Jamiyat, davlat va huquq” mavzusini o’qitishda talim texnologiyalarining
tutgan o’rni.

2.2. “Jamiyat, davlat va huquq” mavzusining texnologik xaritasi.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, har qanday davlatning rivojlanishi uning intellektual salohiyatiga bog'liq. Intellektual salohiyat xalqaro andozalardagi zamonaviy taraqqiyotni ta'minlay oladigan mustaqil fikrli, malakali, bilimli, yuksak insoniy fazilatlarga ega kadrlarning majmuidir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagi IX sessiyasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi" Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan qator muhim vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasining asosli mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish, o'qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish, masofaviy ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida modul tizimidan foydalangan holda o'quvchilar o'qishini jadallashtirish ana shunday dozarb vazifalar sirasiga kiradi. Yuqori malakali pedagog kadrlarga bo'lgan talablar ortib borayotgan hozirgi sharoitda barkamol yosh avlodni asrlar davomida shakllanib kelayotgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega bo'lgan, fanning fundamental asoslarini puxta egallagan, pedagogika va psixologiya fanlarining zamonaviy metodlari bilan chuqur qurollangan, kasbiy tayyorgarligi yuqori darajada bo'lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini yaxshi o'zlashtirib olgan ijodkor pedagog kadrlarni shakllantirish talab etiladi. O'sib kelayotgan yosh avlodning huquqiy ongini o'stirish zaruriyati masalalari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagi IX sessiyasida qabul qilingan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi"¹da, hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining o'sha yil 25-iyundagi "Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida"gi farmonida o'z aksini topgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, Toshkent, 1997, № 9 . № 466-1-son qarori , 23-33-betlar.

Bugungi kunda yurtimizda malakali pedagog kadrlarga bo'lgan talablar ortib borayotgan hozirgi sharoitda barkamol yosh avlodni asrlar davomida shakllanib kelayotgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega bo'lgan, fanning fundamental asoslarini puxta egallagan, pedagogika va psixologiya fanlarining zamonaviy metodlari bilan chuqur qurollangan, kasbiy tayyorgarligi yuqori darajada bo'lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini yaxshi o'zlashtirib olgan ijodkor pedagog kadrlarni shakllantirish talab etiladi.

Yurtimizda yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda pedagogik texnologiyalarning amaliy ahamiyatini oshirish borasida ko'plab ishlar olib borilmoqda. Bunga misol sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning 2012-yil 28-maydagi *“Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora tadbirlar to'g'risida”*² Qarorini keltirish mumkin. Ushbu qarorning 5-bo'limida qayd etilgan “O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi: talim jarayonida ilg'or pedagogik uslub va texnologiyalari (“case study” uslubi, loyihalar uslubi, hamkorlikda o'qitish, “amaliy o'yin”, interfaol ta'lim uslubi va boshqalar), axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari va multimedia taqdimotlaridan foydalanish borasida chet el tajribasini chuqur va har tomonlama o'rganish” borasidagi bandi bugungi kunda respublikamiz ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'rta maxsus ta'lim tizimida o'qitiladigan “Huquqshunoslik” faniga “Jamiyat, davlat va huquq” mavzusining kiritilishi va uning yosh avlodga o'qitilishi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Kurs ishi mavzusining dolzarbligi shundaki, o'quvchiga “Jamiyat, davlat va huquq”

² I. A. Karimov. Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora tadbirlar to'g'risidagi Qarori. Toshkent oqshomi. №105(12.166). 2012-yil 29-may. 1-2-bet

mavzusidan kelib chiqqan holda jamiyat, davlat va huquqning kelib chiqish tarixi, mohiyatini va bu tushunchalar qanday ma'no anglatishini tushuntirmasdan turib "Huquqshunoslik" fanining boshqa mavzularini tushuntirishga o'tib bo'lmaydi. O'quvchi "Jamiyat", "Davlat" va "Huquq" tushunchalarining qanday ma'no anglatishini, mazmunini, mohiyatini tushunmasdan turib boshqa mavzularning mohiyatini tushunib yetmaydi. "Jamiyat, davlat va huquq" mavzuning mohiyatini o'quvchiga to'liq tushuntirishda pedagogik texnologiyalarning o'rni beqiyos. Shundan kelib chiqqan holda men "Jamiyat, davlat va huquq" mavzusini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishni dolzarb masala deb bilaman.

Muammoning o'rganilish darajasi. Huquqshunoslik fanida "Jamiyat, davlat va huquq" mavzusining o'qitilishidan kelib chiqqan holda "Jamiyat, davlat va huquq" masalalari yuzasidan mavjud ilmiy adabiyotlar, nashrlar va darsliklar tahlili shuni ko'rsatdiki, mazkur sohalar bo'yicha ko'plab olimlar, mutaxassislar, huquqshunoslar va pedagoglar ilmiy izlanishlar olib borilgan va samarali natijalarga erishilgan.

Masalan, A. Saidov, U. Tadjixanov, X. Odilqoriyev³, X.T. Odilqoriyev, I. T. Tutleyev, N. P. Azizov, A. A. Tadjiyev, X. X. Odilqoriyev⁴, H. H. Mahmudov, R. T. Berdiyarov, G. M. Isroilova⁵, J. Yoqubov, E. Hayitboyev⁶ va boshqa ko'plab mutaxassislarning ilmiy izlanishlarida, kitoblarida "Jamiyat, davlat va huquq" masalasi o'rganilgan.

Bir qator mutaxassislar o'z ishlarida "Huquqshunoslik" darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalasiga to'xtalishgan. Biroq "Huquqshunoslik" darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasi bo'yicha aniq ilmiy izlanishlar olib borilmagan.

Tadqiqot ob'yekti. "Huquqshunoslik" darslarida "Jamiyat, davlat va huquq" mavzusini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish jarayonini tashkil etish.

³ A. Saidov, U. Tadjixanov, X. Odilqoriyev Davlat va huquq asoslari. Darslik. Sharq. T; 2002-yil

⁴ X.T. Odilqoriyev, I. T. Tutleyev, N. P. Azizov, A. A. Tadjiyev, X. X. Odilqoriyev Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. Sharq T; 2009-yil

⁵ H. H. Mahmudov, R. T. Berdiyarov, G. M. Isroilova Huquqshunoslik. Voris-nashriyot. T; 2010-yil

⁶ J. Yoqubov, E. Hayitboyev. Huquqshunoslik. Darslik. Yangi asr avlodi. T; 2006-yil

Tadqiqot predmeti. O'rta maxsus ta'lim tizimida "Huquqshunoslik" darslarida "Jamiyat, davlat va huquq" mavzusini o'qitish jarayoni.

Tadqiqotning maqsadi. Huquqshunoslik fanidan "*Jamiyat, davlat va huquq*" mavzusini pedagogik texnologiyalar yordamida tushuntirish va ularni ta'limda qo'llash.

Tadqiqotning vazifalari.

- * "Jamiyat", "Davlat" va "Huquq" tushunchalarining mazmun-mohiyatini pedagogik texnologiyalar yordamida tushuntirish;

- * "Jamiyat, davlat va huquq" mavzusini o'qitishga doir DTS, o'quv dasturi va o'quv adabiyotlarini tahlil qilish;

- * "Jamiyat, davlat va huquq" mavzusini o'qitishda talim texnologiyalarining tutgan o'rnini ochib berish;

- * "Huquqshunoslik" darsidan "Jamiyat, davlat va huquq" mavzusining texnologik xaritasini tuzish;

Tadqiqot metodlari.

- * DTS, o'quv dasturi va darsliklarni o'rganish, pedagogik jarayonni kuzatish, ijodiy test va so'rovlar o'tkazish;

- * "Huquqshunoslik" fanidan "Jamiyat, davlat va huquq" mavzusini o'qitishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash yuzasidan pedagogika va metodika sohasidagi adabiyotlar, tajriba sinov materiallari natijalarini o'rganish va yoritish.

Kurs ishining metodologik asoslari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" huquqshunoslik fanidan davlat ta'lim standarti, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov asarlari va ma'ruzalarida ta'limni isloh qilish to'g'risidagi yondashuvlar, ta'lim jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining qarorlari hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyruqlari, mavzuga oid ilmiy nazariy va pedagogik manbalar.

Kurs ishining tuzilishi. Kurs ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I. BOB. “Jamiyat, davlat va huquq” mavzusining nazariy asoslari.

1.1. Jamiyat, davlat va huquq tushunchalari.

O'zbekiston xalqi xotirasida XX sarning so'ngi o'n yilligidagi shonli tarixiy voqealar abadiy muhirlanib qoldi. Ayni shu o'n yillikning boshlarida istiqlool sari qadam qo'yildi. Ajdodlarimizning azaliy orzusi mustaqillik – o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi qo'lga kiritildi. Bu yillarda insonparvar, demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini bunyod etish uchun zarur zamin yaratildi⁷.

Xalqimiz va mamlakatimiz hayotida ro'y berayotgan bu kabi o'zgarishlarning tub mohiyati huquqiy imkoniyatlar va demokratik tamoyillarni hayotga to'la tadbiq etish bilan bog'liq. Biz demokratiya va erkinlikning umume'tirof etilgan va asosiy tamoyillariga tayanadigan, ayni chog'da mamlakatimizning tarixiy, milliy xususiyatlariga, xalqimizning dunyoqarashiga asoslangan o'zimizga xos yo'lga sodiqmiz.

Mamlakatimizning rivojlanishi, dunyo miqyosida e'tiborga sazovor bo'lishi kelajak avlodning har tomonlama kuchli va bilimli bo'lishini taqozo etadi.

Yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirishda “Huquqshunoslik” faninig o'rni beqiyosdir.

Shu o'rinda davlat qurilishi va uning taraqqiyoti jamiyatimizning demokratik yangilanishi, iqtisodiyotimizni rivojlantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni amalga oshirishda Prezidentimiz I.A.Karimovning *«Islohot-islohot uchun emas, avvalo inson uchun, inson manfaatlarini ta'minlash uchun»* degan fikrini unutmasligimiz kerak.

Davlat tushunchasining nima ekanligini va uning mohiyatini tushunib yetish uchun avvalombor jamiyat, fuqarolik jamiyati tushunchalarini bilib olish kerak bo'ladi. Demak, jamiyat nima? Bu kishilar majmuasi bo'lib, ular muayyan ehtiyoj va muayyan manfaatlariga ko'ra birlashishi natijasida vujudga keluvchi ijtimoiy munosabatlar mahsulidir.

⁷ X. Odilqoriyev, R. Qayumov, X. Nazarov, M. Lafasov, Z. Karimov, O. Omonova O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. Darslik. Sharq. T; 2003-yil.

“**Jamiyat** – muayyan ehtiyoj va manfaatlariga ko’ra birlashgan kishilarning ma’lum tarzda tashkil topgan majmuasi. Jamiyat birlashishga moyil bo’lgan guruhlar, sinflar, qatlamlardan iborat. Davlat jamiyatning eng muhim tarkibiy elementidir. U jamiyatda asosan siyosiy funksiyalarni bajaradi. Jamiyat bilan davlat aslo bir narsa emas. “Jamiyat” tushunchasi “Davlat” tushunchasidan kengdir”⁸.

Jamiyat – o’zini-o’zi tashkillovchi va boshqaruvchi tizim. Jamiyat-maqсадlari, orzu-intilishlari, yashash tarzlari mushtarak bo’lgan odamlar oilasidan iborat insonlarning ijtimoiy muhiti, jamiyat moddiy tarkibiy qismi, jamiyat kishilarning hayot tarzlari, faoliyatining barcha turlari va ularning natijalarini qamrab oladi, jamiyat kishilar hayoti va faoliyati o’tmish, hozir va kelajakdan iborat vaqt mezonini aks ettiradi, jamiyat odamlararo ob’yektiv ijtimoiy aloqa va munosabatlarning mahsuli va ko’rinishi, jamiyat bir butun yaxlit olamning tarkibiy qismi, borliq, tabiatning o’ziga xos ko’rinishi, odamlar uyushmasining maxsus shakli, jamiyat bir butunlikni, yaxlitlikni tashkil qiluvchi ijtimoiy tizimdir⁹.

Jamiyatning yana bir ko’rinishi mavjud bo’lib, biz uni fuqarolik jamiyati deb ataymiz. **Fuqarolik jamiyati** – yuksak darajadagi huquqiy madaniyatga ega bo’lgan fuqarolardan iborat bo’lgan jamiyatdir¹⁰. Fuqarolik jamiyati nafaqat davlatning kuchi bilan, balki uning a’zolari bo’lmish fuqarolarning o’zlari orqali saqlab turiladigan va qat’iy tartibda qaror topgan jamiyatdir. Fuqarolik jamiyatiga davlatning kuchli ta’siri talab etilmaydi. Davlat bunday jamiyatning nazoratida bo’lishi kerak, chunki *davlat – fuqarolik jamiyatining “yollanma xizmatkori”*¹¹. Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “Biz uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo’lib, u insonning o’z-o’zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha yordam berdi.

⁸ A. Saidov, U. Tadjixanov, X. Odilqoriyev Davlat va huquq asoslari. Darslik. Sharq. T; 2002-yil 8-bet.

⁹ I. Karimov, K. Tulenova, S. Valiyeva. Ijtimoiy falsafa. 2008-yil. 18-bet.

¹⁰ J. Yoqubov, E. Hayitboyev Huquqshunoslik. Darslik. Yangi asr avlodi. 2006-yil. 6-bet.

¹¹ A. Saidov, U. Tadjixanov, X. Odilqoriyev Davlat va huquq asoslari. Darslik. Sharq. T; 2002-yil 8-bet.

Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashdi"¹².

Davlat, huquq va jamiyat muayyan aloqadirlikdadir. "Jamiyat" – nisbatan keng tushuncha. Davlat uning ichida mavjud bo'ladi. Davlat huquqni keltirib chiqaradi, ammo huquq ham davlatni shakllantiradi va yo'naltiradi. Jamiyat, davlat va huquq ta'sirida u yoki bu tomonga o'zgaradi. Huquq hamma uchun majburiy bo'lib, davlat uchun ham, jamiyat a'zolari uchun ham muhimdir.

Davlatdagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar qanchalik mukammal bo'lsa, jamiyat va davlatning funksiyalari (vazifalari) shunchalik aniq ajralib turadi. Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat uyg'un munosabatga ega. Jamiyat o'zining ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga oid ko'plab muammolarni davlatning yordamisiz va aralashuvisiz hal qiladi. Huquqiy davlat jamiyatning o'zi eplaydigan masalalarda fuqarolik jamiyati va uning ayrim a'zolariga vasiylik qilishi shart emas. Fuqarolik jamiyati o'zini-o'zi boshqaradi va huquqiy davlat siyosatiga, undagi huquqiy tizimga hal qiluvchi ta'sir o'tkaza oladi¹³.

“Demokratik jamiyat – bu, eng avvalo, fuqarolik jamiyatidir. Chinakam demokratiyaning oliy mazmuni – shaxslararo, millatlararo, davlat va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni uyg'unlashtirishdan iborat. Bunda inson va jamiyat, jamiyat va davlat hokimiyati tinch-totuv yashaydi"¹⁴.

“Davlat” tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, jamiyat rivoji natijasida ommaviy hukumron guruhlar paydo bo'la boshlagan. Bu ommaviy hukumron guruhlar o'zlarining hukumronligi asosini tashkil etuvchi omillarni himoya qilish maqsadida turli xil harakatlarni amalga oshirganlar. Jumladan, sun'iy tarzda iqtisodiy qaramlik vujudga keltirilgan, tartibga soluvchi me'yorlar (g'oyalar) o'ylab topilgan yoki tartibga solib turuvchi kuch (hokimiyat) tashkil etilgan.

¹² I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T; 1997-yil. 173-bet.

¹³ J. Yoqubov, E. Hayitboyev Huquqshunoslik. Darslik. Yangi asr avlodi. 2006-yil. 7-bet.

¹⁴ I. A. Karimov. "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir" T.3 – T; O'zbekiston. 1996-yil. 362-263-betlar.

“Davlat” tushunchasi keng ma’noli bo’lib, uning mohiyati deganda davlatning maqsad va vazifalarini, kimga yoki qaysi sinf manfaati uchun xizmat qilayotganligini, huquqiy jihatidan qanday tamoyillar bilan asoslanganligini tushunish kerak.

Davlat kishilik jamiyati taraqqiyotining muayyan bosqichida paydo bo’ladi. Ushbu bochiqichda ilgari mavjud bo’lgan ijtimoiy mahsulotni teng taqsimlash tizimi natija bermaydi, natijada jamiyatning yanada rivojlanishi uchun boshqarish bilan shug’ullanadigan Sharq jamiyatlaridagidek yoki Evropa mamalakatlaridagidek siyosiy va iqtisodiy sohalardagi nufuzli qatlamining ajralib chiqishi zarurati tug’iladi. Bu esa, jamiyatning tabaqalanishiga olib keladi va shunda dastlab (ibtidoiy jamoa tuzumda) jamiyatning barcha a’zolariga tegishli bo’lgan hokimiyat siyosiy mazmun kasb etadi, ya’ni u eng avvalo imtiyozli ijtimoiy guruhlar, sinflar manfaatiga xizmat qila boshlaydi. Binobarin, davlatning paydo bo’lishi hamisha ommaviy hokimiyatning mazmuni o’zgarib, siyosiy hokimiyatga aylanishi bilan bog’liq bo’lgan. Bu esa, hokimiyatning ibtimoiy jamoa tuzumidan farqli o’laroq, eng avvalo, jamiyatning imtiyozli qismi va sinfiy manfaatlarga xizmat qilishini bildiradi. Bunday holatda sinfiy yondashuv mazkur hokimiyatni tavsiflash, bunday davlatning mohiyatini ta’riflashga imkon yaratadi.

Davlat insoniyat va jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlarida, turli hududlarda turlicha davrlarda shakllangan siyosiy institutdir. Davlatning mazmun mohiyatini anglashga bo’lgan turlicha qarashlar davlatning kelib chiqishi haqidagi nazariyalarni ham ma’lum guruhlariga ajratishga asos bo’ladi. Davlat va uning mohiyati, kelib chiqishiga bolgan qarashlar har bir tarixiy davrda jamiyat manfaatlari va ehtiyojlari bilan bog’liq holda o’zgarib boigan. Jamiyat davlatsiz va o’z navbatida esa davlat ham jamiyatsiz taraqqiy etmasligi malum.

Davlat- jamiyatning shakllangan siyosiy instituti.

Davlat— bu suverenitetga, boshqaruv mexanizmiga hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishning maxsus apparatiga ega bo’lgan

shuningdek, huquq normalarini yaratishga qodir, jamiyat siyosiy tizimining, turli shaxslar va tashkilotlarning hamkorlikdagi faoliyatini va o'zaro munosabatini yo'naltiruvchi siyosiy institutdir¹⁵.

Davlat- suverenitetga, boshqaruvning hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishning maxsus apparatiga ega bo'lgan, shuningdek, huquq normalarini yaratishga qodir bo'lgan ommaviy hokimiyatning siyosiy-hududiy tashkiloti.

Davlat- butun mamlakat miqyosidagi hokimiyatning maxsus boshqaruv va majburlov apparatiga ega bo'lgan, barcha uchun majburiy qonunlar chiqaradigan va suverenitetga ega bo'lgan yagona siyosiy tashkilot.

Davlat- jamiyat siyosiy tizimining odamlar, guruh, sinif va tashkilotlarning hamkorlikdagi faoliyatini va o'zaro munosabatini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va nazorat qiluvchi asosiy institut.

Davlat- hokimiyatning bosh instituti. Hokimiyat davlat orqali o'z siyosatini amalga oshiradi¹⁶.

Davlat jamiyat taraqqiyotining ma'lum bosqichida paydo bo'lgan, davlat hokimiyat vakolatini amalga oshiradigan siyosiy tashkilot sifatidayuzaga kelgan. Bugungi kunda davlat tushunchasi, uning paydo bo'lishi to'g'risida turli nazariyalar mavjud bo'lib ular ichida diniy, shartnomaviy, materialistik, patriarxal va sinfiy kabi qator huquqiy maktablar mavjud. Davlat turli hududlarda turlicha davrlarda yuzaga kelgan va insoniyat tarixiy, ijtimoiy taraqqiyoti davomida shakllanib borgan. Lekin hozirga qadar huquqshunos olimlar tomonidan davlat qachon va qanday holda shakllanganligi hamda uning tub mohiyati xususida yagona to'xtamga kelinmagan. Davlatning paydo bo'lishi haqidagi qarashlarning sharqiy yo'nalish nazariyotchilari va g'arbiy yo'nalish nazariyotchilariga ham ajratishadi.

¹⁵ H.H. MAHMUDOV, R.T. BERDIYAROV, G.M. ISROILOVA. HUQUQSHUNOSLIK. «Voriz-nashriyot» Toshkent – 2010-yil. 10-bet.

¹⁶ J. Yoqubov, E. Hayitboyev Huquqshunoslik. Darslik. Yangi asr avlodi. 2006-yil.9-bet.

Davlat va huquqning kelib chiqishi to'g'risidagi masala ko'p asrlar davomida ko'plab mutafakkir faylasuflar, huquqshunoslar, iqtisodchilar va tarixchilarni o'ylantirib kelgan.

“Huquq” iborasi kundalik hayotimizda ko'p qo'llaniladigan tushuncha bo'lib, “haq”, “haqiqat” so'zlaridan olingandir.

Huquqning paydo bo'lishida asosan uchta bosqichni ajratib ko'rasatish mumkin.

Birinchi bosqich - huquqning paydo bo'lish bosqichi. U asosan ishlab chiqaruvchi iqtisodiyot shakllari vujudga kelayotgan jamiyatga xosdir.

Ikkinchi bosqich – ushbu tartibga solish tizimi qoidalarining shakllanishi davri. Bu bosqich ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotning turli shakllari to'liq o'rnatilgan jamiyatlarda mavjud edi.

Uchinchi bosqich – bir qator ilk davlatlarda huquqning yozma tarzda muayyan tizimga solinishi, ya'ni kodifikatsiyalashishidir.

Hozirgi kunda huquq quyidagi ma'nolarda ko'llaniladi:

Birinchi, muayyan jismoniy yoki yuridik shaxsning huquqi; ikkinchi, huquq hamma uchun majburiy bo'lgan, davlat tomonidan o'rnatiladigan va bajarilishi ta'minlanadigan, muhofaza qilinadigan qoidalar, me'yorlar majmuidir; uchinchi, huquq ijtimoiy fan sohalaridan birining nomi bo'lib, davlat va huquq haqidagi ilmlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Aflotun va Arastu fanga siyosiy huquq tushunchasini kiritgan va uni tabiiy hamda shartli huquqlarga ajratgan.

“Siyosiy huquq” - tabiiy huquq va shartli huquq qismlaridan iborat:

“Tabiiy huquq” - tan olish yoki tan olmaslikdan qat'i nazar hamma joyda bir xil ahamiyatga ega bo'lgan qoidalardir.

“Shartli huquq” - insonlar tomonidan ularning xohish-irodasiga ko'ra o'rnatiladigan qoidalar majmuidir.

Qadimgi Rim mutafakkirlari *huquqni yaxshilik, halol yashash, har kimga o'ziga munosibini berish, o'zgalarga zarar yetkazmaslik, ezgulik va adolat san'atidir*, deb ta'riflaydi.

Sharq mutafakkiri, qomusiy olim Abu Nasr Al-Farobiy huquqni fozil odamlarning haqiqiy baxtga erishish vositasi deb tushungan. Huquq uning fikricha, mamlakatda tinchlikni ta'minlash, havfsizlikni ta'min etish, taraqqiyotga shart-sharoit yaratish, ijodiy mehnatga imkon yaratish vositasidir. Huquq haqida yuridik adabiyotlarda turlicha ta'riflar berilgan. Jumladan:

“*Huquq* - bu davlat tomonidan o'rnatiladigan yoki ma'qullanadigan va qo'riqlanadigan, hamma uchun majburiy bo'lgan yashash qoidalaridir. Huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi regulyatoridir”¹⁷.

“*Huquq* -davlat tomonidan belgilangan yoki ruxsat etilgan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan umummajburiy xulq-atvor qoidalari tizimi”¹⁸dir.

Huquqni zamon talablari asosida to'g'ri tushunish amaliy faoliyat uchun g'oyat muhim va zarurdir. Shu bois huquqqa davlat arboblari ham katta e'tibor berib, uni tushunishda o'z munosabatlarini ifodalaydilar. Xususan, *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov huquqqa shunday ta'rif bergan: “Huquq ijtimoiy hamjihatlik va kelishuvga asoslangan ijtimoiy tartib-intizomga erishish, erkinlik, adolatparvarlik va tenglikni vujudga keltirish vositasi”*¹⁹dir.

Huquq-ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlarda o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi norma. Huquq ko'p qirrali tushunchadir, shuning uchun uning hamma jihatlarini qamrab olishning imkoni yo'qdir. Shunday bo'lsada, uning tushunchasini tashkil etuvchi quyidagi asosiy belgilarni ko'rsatish mumkin: huquqning barcha uchun majburiyligi; huquqning qonun va boshqa aniq shakllarda ifodalangan bo'lishi; huquqning davlat tomonidan o'rnatilishi, muhofaza qilinishi; huquqning ijtimoiy tartib-intizom, erkinlik, adolatparvarlik, tenglikni ta'minlash vositasi ekanligi; huquqning sub'ektiv va ob'ektiv huquqlarga bo'linishi va sub'ektiv huquqlar orqali harakat qilishi; huquq ehtirolarni jilovlash vositasi ekanligi²⁰.

¹⁷ «Davlat va huquq nazariyasi» A A'zamxo'jayev va Sh.O'razayev tahriri ostida T., 255–bet

¹⁸ Tojixanov U, Saidov A «Davlat va huquq asoslari» o'quv qo'llanma T.. 1999 y 40-bet.

¹⁹ Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari T.. «O'zbekiston», 26-bet.

²⁰ H.T.Odilqoriyev “Davlat va huquq nazariyasi” Toshkent. TDYUI. 2000 203-bet

Huquq paydo bo'lishining asosiy belgilarini **A.Saidov** bilan **U.Tojixanov**larning *“Davlat va huquq nazariyasi”* darsligida quyidagicha ko'rsatgan: uning ijtimoiyligi, normativ xususiyatga egaligi, majburiyligi, rasmiyligi, muayyan jarayon ekanligi, shaxsiylashtirilmaganligi, institutsiyaviyligi, ob'ektivligidir²¹. Mazkur belgilarning majmui huquq haqida to'laroq tushunchaga ega bo'lish imkonini beradi.

Huquqning mohiyatiga kelsak, huquqning insoniyat uchun xizmat qilishi bilan belgilanadi. Shuning uchun huquqning mohiyatini aniqlash uchun uning kimga xizmat qilishini, kimning irodasini ifodalashini aniqlash zarur.

Davlat va huquq paydo bo'lganidan buyon kishilik jamiyati hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Davlat ham, huquq ham o'ta murakkab, serqirra ijtimoiy hodisalar bo'lganligi bois insoniyat azaldan ushbu sirli fenomenlarning ta'no-mazmunini anglashga jiddiy qiziqish bildirib keladi. Qadim zamonlardan buyon aql daholarining sa'y-harakatlari bilan davlat va huquq haqida teran nazariy ta'limot yaratildi. Ushbu ta'limot bugungi kunda *“Davlat va huquq nazariyasi”* deb nomlanadi. Davlat va huquq nazariyasi umumbashariy xususiyatga ega, uning universal qoidalari, xulosalari va ta'riflari jug'rofiy joylashuvi, milliy mansubligidan qafi nazar, har qanday davlatga va huquqiy tizimga birdek taalluqlidir. Davlat va huquq to'g'risida nazariy bilimga ega bo'lish bu ikki hodisaning mohiyati va mazmunini, rivojlanish qonuniyatlarini, ularga ta'sir etuvchi omillarni to'g'ri talqin qila bilish yuqori malakali yurist mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Chunki, fuqarolik, ma'muriy, jinoiy, moliya, mehnat huquqi kabi huquq sohalarining maqsadi, mazmunini bilish uchun davlat va huquq nazariyasi fani fundamental asos bo'lib, davlat va huquqning tushunchasi, rivojlanishi va ularning faoliyat qilish tamoyillariga oid nazariy bilimlarni hosil qiladi.

Jamiyatni yangilash sharoitidayuridik fanning asosiy vazifasi- milliy huquqiy ta'limotni, ijtimoiy munosabatlarning qonuniyatlarini va huquqiy qoidalarini o'rganishda, talqin qilishda, ularga ilmiy baho berishda yangi jamiyatning xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish va amaliyot uchun har

²¹ A.Saidov, U Tojixanov «Davlat va huquq nazariyasi». T..Adolat. 2001. 97-100-betlar.

tomonlarga mukammal, asoslangan nazariy xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi. Bu esa huquq sohalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish va tashkil qilish jarayonida amaliyot bilan uzviylikni ta'minlash borasida tub o'zgarishlar yasashni, yangi shakl va usullarni o'zlashtirishni talab qiladi²².

Huquq - ijtimoiy munosabatlarni normativ tartibga soluvchi tizim bo'lib, uning asosiy qismi qonunchilikda o'z ifodasini topadi, rasmiy manbalarda normativlik va rasmiy xarakterga ega bo'lib, qonuniylik va adolatparvarlik qoidalariga asoslanadi.

Huquq - tenglik, adolat va erkinlik g'oyalariga asoslanib, ko'p jihatdan qonunchilikda va boshqa huquqiy manbalarda o'z ifodasini topuvchi hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi hamma uchun majburiy huquqiy normalar yig'indisidir. Hozirgi zamon huquqshunoslari huquq tushunchasini o'z asarlarida turlicha talqin etmoqda, qarashlarning xilma-xilligi asosida esa fikrlar tobora takomillashib bormoqda.

Huquq tushunchasi, uning mazmun-mohiyati xususida, paydo bo'lishi va o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida olimlar tomonidan qator fikrlar bildirilib, ularning ta'riflari turli davrlarda turlicha talqin qilingan.

Qadimdan insoniyat huquq masalalari bilan jiddiy shug'ullanib keladi, lekin tadqiqotchi olimlarning har biri unga o'z qarashlarini singdirib borgan. Vaqt o'tishi bilan huquq haqidagi tushunchalar o'zgarib borgan, uning mohiyatini tushuntirishga ham turlicha qoidalar asosida yondashib kelingan. Huquq xususida bugungi kunda yuridik adabiyotlarda turlicha ta'rif berilgan bo'lsada, ularning har birida o'ziga xos ma'no-mazmun mavjud. Huquqshunos Laurens Fridmanning aytishicha, huquq tushunchasi *shishadek nozik, sovun ko'pigidan hosil bo'ladigan pufaklarday omonat, vaqtdek tutqich bermas* ko'pdan-ko'p ma'nolarga ega.

Huquq bu davlat tomonidan o'rnatilgan yoki ma'qullangan va qo'riqlanadigan, hamma uchun majburiy bo'lgan yashash qoidalaridir.

²² Ro'zinazarov Sh.N. Yuridik fanlarining rivojlanishi va zamonaviy muamrnolari Mas'ul muharrir: H.R.Rahmonqulov.-T.: 2006.-7 b.

Huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi regulatondir²³.

Shuningdek, huquq davlat tomonidan belgilangan yoki ruxsat etilgan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan umummajburiy xulq-atvor qoidalari tizimidir²⁴, - deya ta'riflashadi. Boshqacha aytganda, huquq davlat tomonidan o'rnatiladigan, barcha shaxslar uchun bajarilishi va rioya etilishi majburiy bo'lgan, davlatning vakolatli organlari tomonidan qo'riqlanadigan va bajarilishi ta'minlanadigan umummajburiy qoidalar majmuidir.

Huquq tushunchasi va mohiyatini yoritishda turlicha qarashlar mavjud bo'lib, huquqqa istisnosiz faqat yuridik normalar tizimi deb qarovchi normativ yondashuv, huquqni uning tomonidan boshqariladigan ijtimoiy munosabatlar bilan bir xil, tenglash- tiruvchi sosiologik yondashuv va huquqni ozodlik va adolat mezonlari bilan bog'lovchi falsafiy yondashuvlar shakllandi. Huquq tushunchasini ikki xil ma'noda ya'ni me'yorlar, qoi- dalar yig'indisi sifatida ham, ma'lum bir sub'ektlarga jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli huquq sifatida ham qarash mumkin.

Huquq bevosita davlat bilan bogliq bo'lib, davlatsiz huquq bo'la olmaydi, chunki huquqni aynan davlat o'rnatadi, rasmiylashtiradi, bajarilishini ta'minlaydi va bevosita rioya etilishini nazorat qiladi. Xuddi shuningdek, davlat ham huquqqa ehtiyoj sezadi, huquq qoidalari orqali hokimiyatni tutib turadi, vakolatlarini qonun chiqarish yo'li bilan asoslaydi hamda davlatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi.

Huquq tushunchasi, uning ma'ni-mazmuni xususida Aflotun va Arastu, I. Kant, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino kabi olimlar o'z asarlarida tavsif berib o'tganlar. I. Kant huquq to'g'risida fikr bildirib, adolatni amalga oshiruvchi, qonun sohibining erki irodasini ifodalovchi hamda tabiiy isbot talab qilib bo'lmaydigan qoidalar majmui sifatida ta'rif beradi. Farobiyo'zining **“Fozil odamtar shahri”** asarida huquqni fozil kishilarni haqiqiy baxtga erishish vositasi, davlatda tinchlikni ta'minlash, taraqqiyotga sharoit yaratish hamda insonni asrash, ehtirolarni jilovlab turuvchi va tartibga soluvchi qurol sifatida ta'kidlaydi.

²³ Qarang: Davlat va huquq nazariyasi. A.A'zamxo'jayev va Sh. O'razavyev tahriri ostida - T.: 1992,-255 b

²⁴ Tojixonov U, Saidov A. Davlat va huquq asoslari. o'quv qo'llanma. -T.: 1999,- 40 b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov huquqqa ijtimoiy hamjihatlik va kelishuvga asoslangan ijtimoiy tartib-intizomga erishish, erkinlik, adolatparvarlik va tenglikni vujudga keltirish vositasi sifatida yondashiladi, deya ta'rif beradi²⁵. Huquq bilan axloq o'rtasida ancha farqlar bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: Huquq va axloq o'rnatilishi, shakllanishi va manbalariga, ularni ta'minlash usullariga, o'z qoidalarining ifodalanish shakliga, kishilar ongiga ta'sir etish xarakteri va usullariga, insonning xilqiga nisbatan qo'yiladigan talabarga, ta'sir doirasiga, tegishli qoidalari buzilganda qoidabuzarga nisbatan belgilanadigan javobgarlikning xarakteri va qollanish tartibiga, ta'sir choralarning xususiyatiga va boshqa jihatlariga ko'ra farqlanadi.

Umuman, huquq bu davlat tomonidan o'rnatiladigan, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiluvchi, ma'lum hujjatlarda o'z ifodasini topgan, davlat organlari tomonidan yaratilgan va qo'riqlanadigan barcha uchun umummajburiy bo'lgan normativ hujjatlar yig'indisidir. Shuningdek, huquq o'ziga xos bir qator xususiyatlarga ega bolib, bu belgilar ma'lum huquq haqidagi tushunchalarni to'laroq, batafsil yoritish va to'ldirishga imkon beradi.

V.K.Babayev huquqdagi adolat va ozodlik bosh tamoyillarini bayon etib, bu tamoyillar huquqning boshqa, ya'ni huquqni shakllantirish va uni amalga oshirishdagi demokratizm, qonuniylik, milliy tenglik, insonparvarlik, fuqarolarning qonun oldidagi tengligi, davlat va shaxs o'rtasidagi o'zaro mas'uliyat tamoyillarida o'z rivojini topadi, deb hisoblaydi.

Huquq mohiyatini to'g'ri tushunish faqat huquqshunoslik fanining samarali rivojlanishiga xizmat qilibgina qolmay, balki amaliyotchi huquqshunoslar uchun ham, huquqni qollanish va muhofaza etish bo'yicha faoliyatlarida nihoyatda zamrdir. Huquqning nima ekanligini yaxshi bilmay turib, uning to'g'ri qollanilishi, qonuniylik, huquqiy mas'uliyat haqida gapirish mumkin emas.

Huquq umumijtimoiy mohiyatga ega bo'lib, barcha kishilarning manfaatlariga xizmat qiladi, tashkiliy birlikni, intizomni, barqarorlikni va ijtimoiy adolatning qarortopirishni ta'minlaydi.

²⁵ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.3-t,-T.: «O'zbekiston»,1996.-20 b

Huquqning mohiyati haqidagi nazariyalar

Taddiy huquq nazariyasi (Lokk, Russo, Monteske, Radishchev, XVII-XVIII asrlar) Davlat tomonidan yaratilgan pozitiv (ijobiy) huquq bilan birga, undan ham yuqorida turadigan insonga u tuqiliscidan xos bolgan, undan ajralmas tabiiy huquq ham bor, deb hisoblaydilar (yashash huquqi, mehnat qilish huquqi, boshpana huquqi, erkin xarakatlanish huquqi va boshqalar).

Realistik huquq maktabi (R. Iering). Huquq bu davlat tomonidan himoya qilinadigan manfaat bo'lib, u davlat hokimiyatisiz hech narsa emas. Huquq - himoyalangan davlat manfaatidir.

Psixologik huquq maktabi (Petrajiskiy, Merill). Kishilarning ruhiyati jamiyat, axloq, huquq va davlatning rivojlanishini belgilab beradigan omildir. Bu nazariya vakillarining fikricha, haqiqiy huquq kishilarning o'z huquq va majburiyatlari to'g'risidagi ruhiy kechinmalaridir.

Huquqni tushunishga tarixiy yondashuv (G. Gugo, K. Savin' i. F. Puxta, XVII asr oxiri XIX boshlari). Qonunshunos huquq normasini o'zining irodasi bilan o'rnatmaydi, balki u shakllangan normani rasmiylashtirib qo'yadi, xolos. Bu nazariya vakillarining fikricha, huquq tarixiy jarayon davomida xuddi til yoki muayyan millat kabi birovning ko'rsatmasi yoki davlatning aralashuvisiz asta-sekin tarkib topadi va rivojlanadi.

Huquqni tushunishda normativlik nazariyasi (G. Kel'zen, R. Shtammmler, Novgorodsev XX asr). Bu nazariya vakillari huquqning butun tizimi, zinapoya tuzilishiga ega bo'lib, bu zinapoyaning boshida asosiy (suveren) huquq normasi turadi va quyi pog'onadagi normalar yuqoridagi suveren normadan kelib chiqadi, deb hisoblaydilar.

Materialistik (sinfiy) huquq nazariyasi (K. Marks, F. Engels, XIX-XX asr). Bu nazariya vakillari fikricha, huquq bu hukmron sinfning qonun darajasiga ko'tarilgan erki bo'lib, uning mazmuni jamiyat hayotidagi iqtisodiy sharoitlar bilan belgilanadi.

Huquq- davlat tomonidan o'rnatilgan yoki maqullangan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan umummajburiy xulq-atvor qoidalarining tizimi.

“Huquq” iborasi ikki ma'noda qo'llaniladi. *Ob'yektiv huquq* – umummajburiy xulq-atvor qoidalarining yig'indisi. Bu normalar u yoki bu insonning, sub'yektning irodasi hamda xohish-istagidan qat'i nazar mavjud bo'ladi. *Sub'yektiv huquq*- muayyan jismoniy yoki yuridik shaxsga tegishli bo'lgan huquq. Masalan, fuqaro Aliyevning ma'lum narsaga, aytaylik, avtomabilga nisbatan mulk huquqi. Sub'yektiv huquq yuridik jihatdan shaxs erkinligini ta'minlaydi, unga mustaqillik beradi va tashabbus ko'rsatishiga imkon yaratadi. Sub'yektiv huquq ob'yektiv huquqqa asoslanadi, ob'yektiv huquq bo'lmasa, sub'yektiv huquq ham bo'lmaydi. Sub'yektiv huquq insondan (yoki tashkilotdan), mansabdor shaxsdan ajralmagan holda mavjud bo'ladi. Huquq davlat bilan chambarchas bog'langan.

Davlatsiz huquq mavjud bo'lishi mumkin emas, chunki aynan davlat huquqni shakllantiradi va huquqiy normalarning amalga oshirilishini kafolatlaydi, huquqni muhofaza qiladi.

O'z navbatida, davlat ham huquqsiz mavjud bo'lishi mumkin emas. Aks holda, u ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi vositadan mahrum bo'ladi.

Huquqning asosiy belgilari quyidagilar:

- * davlat yo'li bilan o'rnatilishi;
- * barcha uchun majburiyligi;
- * huquq normalarining qonunlar va boshqa muayyan manbalarda ifodalanishi;
- * sub'yektiv huquqlar orqali harakat qilish;
- * davlat tomonidan ta'minlanganligi²⁶.

²⁶ J. Yoqubov, E. Hayitboyev Huquqshunoslik. Darslik. Yangi asr avlodi. 2006-yil. 26-bet.

1.2. “Jamiyat, davlat va huquq” mavzusini o’qitishga doir DTS, o’quv dasturi va o’quv adabiyotlarining tahlili.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar huquqshunoslik fanlarining rivojlanishini ilmiy-nazariy, amaliy va o'quv uslubiy tadqiq qilib o'rganish, o'quvchilar ongiga huquqiy bilimlarni singdirish barobarida huquqiy ong va madaniyatni takomillashtirishni zaruriyat qilib qo'yimoqda. Ayniqsa, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish sharoitida huquqshunoslik fanlarining rivojlanishi va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarga yetkazib berish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti **I.A.Karimov** e'tirof etganidek, *"... davlat ta'lim standartlarini, o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlarini takomillashtirish, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida ta'lim yo'nalishlari va mutaxassislarini bugungi kun talablari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish zarur"*²⁷. "Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, asr talablariga to'liq javob beradigan barkomol avlod bo'lib voyaga etishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz"²⁸.

Mamlakatimizda kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlatni shakllantirish jarayonida, davlat va huquq masalalarini o'rganish, mehnat munosabatlariga oid tushunchalarga ega bo'lish, oilaviy munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi va qonun hujjatlari talablaridan xabardor bo'lish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining huquqiy asoslarini bilish muhim vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning *"Jahon moliyaviy iqtisodiy inqimzi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va*

²⁷ Karimov I.A. O'zbekiston Kostitutsiyasi-biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir.// Xalq so'zi.-2009 yil. 6-dekabr.

²⁸ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir/ -T.: O'zbekiston, 2010. 74-75 b.

choralari" asarida ilgari surilgan g'oyalarda yuridik fanlarni o'rganish borasida ham muhim vazifalarni belgilaydi.

Mazkur kurs ishi o'rta maxsus ta'lim tizimida o'tiladigan "Huquqshunoslik" fanining namunaviy o'quv dasturiga asoslangan holda ishlab chiqilgan. Kurs ishini yozish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, amaldagi qonun hujjatlaridan, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda mamlakatimizda nashr qilingan adabiyotlardan, yetuk mutaxassis va huquqshunos olimlarning ilmiy asarlaridan foydalanildi.

Bugungi kunda yurtboshimiz **I.Karimov** ta'kidlaganlaridek: *"Yosh avlodimizning qalbi va ongini asrash, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, farzandlarimizning dunyoda ro'y berayotgan siyosiy jarayonlarning ma'no-mazmuni va asl sabablarini chuqur anglashi, o'z atrofida sodir bo'layotgan voqealar haqida haqqoniy ma'lumotlarga, eng muhimi, o'z mustaqil fikriga ega, sodda qilib aytganda, oqni qoradan ajratishga qodir bo'lishiga erishish ta'lim-tarbiya va manaviy-ma'rifiy ishlarimizning asosiy sharti va mezon bo'lishi darkor"*²⁹ kabi vazifalari ilgari surilmoqda. Bu vazifalarni bajarish yo'llaridan biri bozor munosabatlarining iqtisodiy va huquqiy asoslarini sodda, tushunarli tilda ommaga etkazuvchi qo'llanmalar, darsliklar, ilmiy ommaviy asarlar yaratish va yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash, ularni bozor iqtisodining huquqiy bilimlari bilan yetarli qurollantirish, bo'lg'usi mutaxassis kadrlarda zamonaviy tafakkurni rivojlantirish lozimligidir.

Yurtimizda ta'limga kata e'tibor berilib kelinmoqda. Bu esa yangi-yangi dasturlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar yaratishni talab qiladi. Bunga O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-yanvardagi "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida"gi 5-sonli, 1998-yil 13-maydagi "O'zbekiston

²⁹ I.Karimov "Eng asosiy mezon-hayot haqiqitini aks ettirish" T., "O'zbekiston", 2009, 8-9 betlar

Respublikasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish to'g'risida”gi 204-sonli qarori, 2000-yil 16-oktabrdagi *“O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida*”gi 400-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan *“Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi*” va boshqa bir qator huquqiy hujjatlar misol bo'la oladi.

Yuz berayotgan o'zgarishlar oldimizga yoshlarning huquqiy davlat tizimi va mohiyatini chuqurroq anglashi, qonun asoslarini o'rganishini, qonunlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, qonun talablarini so'zsiz bajarishini hamda o'z huquq va burchlarini bilishlarini talab etmoqda.

Yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirishda Respublikamiz o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitilayotgan **“Huquqshunoslik”** fanining o'rni va ahamiyati cheksizdir.

№	Darsning mavzusi	Dars soati	Dars turi	Reting nazorat turi	Ko'rgazmali qurollar va texnik vositalar	Foydalanilgan adabiyotlar va qo'llanmalar	Uy vazifasi	Izox
I BOB. J A M I Y A T, D A V L A T V A H U Q U Q. (6 soat)								
1	Jamiyat, davlat va huquq.	2	Nazar iy		Plakatlar “Fuqarolik jamiyati”	I.A.Karimov. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat.T., “O'zbekiston” 1992	O. Karimo va, Huquqsh unoslik T., 2003.8- 17 b	Tan ishi sh
2	Jamiyat, davlat va huquq.	2	Arala sh	J.N	Plakatlar “Fuqarolik jamiyati”	O.A.Karimova, H.N.To'ychiyev a. Davlat va huquq asoslari. T., “O'qituvchi”, 1996.	17-19 bet	Ko nsp ekt
3	Jamiyat, davlat va huquq.	2	Semi nar	J.N	Test	O.A.Karimova, Z.M.G'afforov. Davlat va huquq asoslari. T., “O'qituvchi”, 1995.	8-20 bet	Tah lil

“Huquqshunoslik” fanidan mavzular bo'yicha ishchi o'quv reja

№	Mavzular	Nazariy (Ma'ruza)	Seminar	Jami	Mustaqil ish
1	Jamiyat, davlat va huquq.	3	3	6	4

3-ilova

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari o'zlashtirishi zarur bo'lgan “Huquqshunoslik” fani mazmuniga qo'yiladigan talablarga asosan o'quvchilar “Huquqshunoslik” fanidan quyidagi bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishlari shart:

TSt – 40-504: 2001 **4-ilova**

№		<i>* huquqiy ta'limga oid asosiy tushuncha, qonuniyat va g'oyalarni bilish;</i> <i>* davlat tuzilishi, boshqaruv shakli, boshqaruvni amalga oshirishning demokratik va antidemokratik usullarini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntira olish;</i> <i>* davlat organlarining tuzilish asoslarini tavsiflab berish;</i> <i>* axloq va huquqning o'zaro bog'liqligi va tafovutlarini bilish;</i> <i>* huquq me'yorlarini bilish hamda hayotda o'zlarining xatti-harakatlarini ana shu me'yorlarga monand boshqara olish malakasiga ega bo'lish;</i> <i>* huquq tizimlarini, uning sohalarga bo'linishini, bu sohalarning huquqiy munosabatlarini tartibga solishdagi ahamiyatini tushuntira olish;</i> <i>* huquqni qo'llashni tashkiliy va huquqiy muhofaza qiluvchi funksiyalarini hamda o'z huquqlaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish;</i> <i>* huquqiy davlatning belgilarini, uni shakllantirish yo'llari va muammolarini, O'zbekistonda insonparvar, demokratik, huquqiy demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish asoslarini tushuntira olish;</i> <i>* Prezident asrlarini bilish, ularda ilgari surilgan g'oyalar asosida mushohada yuritaolish;</i> <i>* o'zbek milliy davlatchiligi va uning taraqqiyoti haqida tasavvurga ega bo'lish;</i> <i>* O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi, uning tuzilishi va mazmunini tavsiflay olish;</i> <i>* inson va fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklari tizimlarini va ulardan foydalanish kafolatlarini bilish;</i>
6.	Huquq-shunoslik	

№		* Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish, ularni hurmat qilish, malakalariga ega bo'lish; * O'zbekiston Respublikasining milliy davlat milliy davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini va ularning huquqiy asoslarini bilish; * O'zbekiston Respublikasining davlat hokimiyat tizimi: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatiga bo'linishini, ularning tuzilishi va vazifalarini tushuntira olish; * O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – <u>davlat va ijro etuvchi hukumat boshlig'i</u> (<u>O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-aprelda qabul qilingan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 89-moddasiga kiritilgan tuzatishga muvofiq Prezident faqat Davlat boshlig'i</u>) sifatida fuqarolarning huquq va erkinliklariga, Respublika Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarga rioya etilishiga kafil bo'lishni, Respublika suvereniteti, xavfzizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza qilish, milliy davlat tuzilishi masalalariga oid qarorlarni ro'yobga chiqarish borasida zarur chora-tadbirlar belgilanishini, xalqaro munosabatlarda Respublika nomidan ish ko'rishni bilish; * iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, ma'rifiy sohalarga oid qonunlarning mazmunini bilish va ulardan hayotda foydalana olish; * ta'lim sohasi va yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy tamoyillari, yoshlarning ma'naviy, ma'rifiy, jismoniy kamoloti uchun barcha huquqiy asoslar mavjudligini bilish, o'z kelajagini buyuk davlat bunyodkori sifatida his etib, mamalakat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga astoydil intila olish; * javobgarlik turlarini qo'llash usullarini bilish; * mehnat nima, mehnatning shaxsiy tarbiyalashdagi o'rni, mehnat huquq manbalarining, mehnat shartnomalarining tuzish tartibini, ularni ishga qabul qilish yo'llarini, ularni mehnatini muhofaza qilinishi asoslarini, mehnat intizomi tushunchasini bilib, kelgusida ishga kirish jarayonida olgan bilimlarini hayotga tadbiq eta olish; * oila va nikoh, nikohdan o'tish shart-sharoitlari, ota-ona va farzandlarning mulki, shaxsiy huquq va burchlari, nikoh shartnomalari, farzandlikka olish, vaiyat va homiylik tushunchalariga ega bo'lish; * oilada har bir shaxsning o'rni, ota-ona muqaddas inson ekanliklarini, ularni hurmat qilish, g'amxo'r bo'lish, oilada hamma bir-birlariga qarindoash ekanligini anglash; * nikoh yoshiga yetmasdan nikohiy munosabatda bo'lishning salbiy oqibatini bilish; * nikohga kirish mas'uliyatini chuqur his eta bilish; * ajralishning oldini ola bilish;
6.	Huquq-shunoslik	

№		* tabiat qanday qonunlar asosida muhofaza qilinishligini, tabiat ob'yektlariga nimalar kirishini bilish; * yerdan, suvdan, atmosfera havosidan foydalanish, ekologiya tushunchasi, alohida muhofaza qilish qonunlarini qonunlarini buzganliklari uchun javobgarlik turlarini bilish;
6.	Huquq-shunoslik	* jinoyat tushunchasi, ayb qilish nimadan iborat ekanligi, jinoyatni keltirib chiqaruvchi omillarni, jinoyatda ishtirokchilikni, ularning turlarini, voyaga yetmaganlar jinoyatini, ularni javobgarligini, jinoyatning oldini olish yo'llarini bilish; * jazo, jazo turlari, jazodan ozod qilish, jazoni yengillashtirish, og'irlashtirish sabablarini, ayb va uning shakllarini, qasddan jinoyat qilish sabablarini, har xil turdagi jinoyatlar va ular qo'llaniladigan jazo choralarini bilish.

HUQUQSHUNOSLIK FANI BO'YICHA O'QUV DASTURI MAZMUNI

1-mavzu. Jamiyat, davlat va huquq

Jamiyat tushunchasi. Jamiyat taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi omillar. Kishilik jamiyati shakllarining xilma-xilligi.

Ibtidoiy jamiyat: iqtisodiy, ijtimoiy hokimiyat va kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar. Xususiyl mulkchilik, sinflar- davlat va huquqning vujudga kelishiga sharoit yaratuvchi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar.

Davlat- jamiyatning yashash shakllaridsn biri sifatida. Huquq- jamiyatda kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim vositadir. Davlat va huquqning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati.

Davlat va huquqning o'zaro nisbati va bog'liqligi. Davlatning huquqqa ta'sirining asosiy yo'nalishlari. Davlat va huquqning kelib chiqishi va mohiyati

to'g'risidagi nazariyalar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida jamiyat, davlat va huquq masalalari.

2-mavzu. Davlat tushunchasi va uning mohiyati

Davlat tushunchasi. Davlatning kelib chiqishi. Jamiyatning siyosiy tizimida davlatning tutgan o'rni.

Davlatning belgilari. Davlatning mohiyati. O'zbekiston Respublikasi.

Davlat shakllari tushunchasi, uning tarkibiy qisimlari. Davlat shakllarining xilma-xilligi, ularning o'zgarishi va rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar.

Davlatni boshqarish shakli tushunchasi. Davlat boshqaruv shakllari, ularning o'ziga xos xususiyatlari (Respublika, monarxiya).

O'zbekistonning davlat boshqaruv shakli. Davlatning tuzilish shakli.

Davlat tuzilish shakli haqida tushuncha. Milliy davlat tuzilishi va ularning ularning o'ziga xos xususiyatlari.

O'zbekistonning siyosiy rejimi va uning o'ziga xos xususiyatlari.

3-mavzu. Davlatning funksiyalari

Davlat funksiyasi tushunchasi. Turli tipdagi davlatlarning umumiy va o'ziga xos funksiyalari. Davlat funksiyalarining tasnifi. Davlat funksiyalariga ta'sir qiluvchi omillar. Davlatning vazifalari va funksiyalari.

O'zbekiston tavlating funksiyalari.

Davlat mexanizmi tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Davlat hokimiyati vakolatlarini taqsimlash prinsining nazariy va amaliy ahamiyati.

Davlat apparati va davlat idoralari tushunchasi.

4-mavzu. Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat

Fuqarolik jamiyati tushunchasi, uning belgilari. Fuqarolik jamiyati to'g'risidagi nazariyalar. Fuqarolik jamiyati va dmokratiya

Fuqarolik jamiyatining iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy negizlari. Fuqarolik jamiyatida oilaning, ommaviy axborot vositalarining o'rni.

Huquqiy davlat tushunchasi va uning belgilari. Huquqiy davlat to'g'risidagi nazariyalar.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari o'zlashtirishi zarur bo'lgan "Huquqshunoslik" fanidan "Jamiyat, davlat va huquq" mavzusi yuzasidan o'quvchilar DTS talablari asosida "Huquqshunoslik" fanidan *bilim, ko'nikma va malakaga* ega bo'lishlarida o'quv dasturlari, adabiyotlari va ularga qo'yilayotgan talablarning ahamiyati juda katta.

O'rta maxsus ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan "Huquqshunoslik" fanidan "Jamiyat, davlat va huquq" mavzusini o'qitishda DTS, o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlariga tayangan holda o'quv yili boshida O'rta maxsus ta'lim boshqarmasi tomonidan va ta'lim muassasi rahbariyati tomonidan tasdiqlangan *ishchi o'quv reja, o'quv dasturi va u asosida o'quv dasturining mazmunini* tuzib chiqiladi. Har bir ta'lim muassasi "Huquqshunoslik" fanidan "Jmiyat, davlat va huquq" mavzusini o'qitishda shunga asoslangan holda dars jarayonini tashkillashtiradi. Har bir fan eski ishchi dastur va o'quv rejalariga tayanib qolishi mumkin emas.

"Huquqshunoslik" fani yuridik fan hisoblanadi. Bugungi kunda yurtimizda jamiyat, davlat boshqaruvi sohasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bir qator tuzatish, o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan. Shundan kelib chiqqan holda DTS, o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlarning mazmuni va unda keltirilga ma'lumotlar ham yangi qonunga asoslangan holda o'zgaradi va DTS talablariga javob bermaydi. O'qituvchidan mavzu yuzasidan o'quvchilarga bilim berishida mana shu yangiliklarda boxbar bo'lishi lozim va

o'z vaqtida o'quvchilarga yangi mavzuni tushuntirishda yangi va eski malumotlarni o'zaro taqqoslab berishi va tahlil qilib berishi talab etiladi.

“*Huquqshunoslik*” fanidan “Jamiyat, davlat va huquq” mavzusi bo'yicha 2001- yildagi va 2012- yildagi ishchi o'quv rejalarining bir-biridan farqini quyidagi jadvallar orqali ko'rishimiz mumkin.

2001-yilga qadar bo'lgan davrdagi o'quv ishchi reja:

№	Darsning mavzusi	Dars soati	Dars turi	Reting nazorat turi	Ko'rgazmali qurollar va texnik vositalar	Foydalanilgan adabiyotlar va qo'llanmalar	Uy vazifasi	Izox
I BOB. J A M I Y A T, D A V L A T V A H U Q U Q. (6 soat)								
1	Jamiyat, davlat va huquq.	2	Nazar iy		Plakatlar “Fuqarolik jamiyati”	I.A.Karimov. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat.T., “O'zbekiston” 1992	O. Karimo va, Huquqsh unoslik T., 2003.8- 17 b	Tan ishi sh
2	Jamiyat, davlat va huquq.	2	Arala sh	J.N	Plakatlar “Fuqarolik jamiyati”	O.A.Karimova, H.N.To'ychiyev a. Davlat va huquq asoslari. T., “O'qituvchi”, 1996.	17-19 bet	Ko nsp ekt
3	Jamiyat, davlat va huquq.	2	Semi nar	J.N	Test	O.A.Karimova, Z.M.G'afforov. Davlat va huquq asoslari. T., “O'qituvchi”, 1995.	8-20 bet	Tah lil

2012-yildagi o'quv ishchi reja:

№	Mavzular	Nazariy (Ma'ruza)	Seminar	Jami	Mustaqil ish
1	Jamiyat, davlat va huquq.	3	3	6	4

Yuqoridagi ikki jadval orqali o'quv ishchi rejalarining bir-biridan farqli jihatlarini korishimiz mumkin.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari o'zlashtirishi zarur bo'lgan "Huquqshunoslik" fani mazmuniga qo'yiladigan talablar 16-bandagi farq 2001-yildagi va 2012-yildagiga nisbatan:

2001-yidagi:

TSt – 40-504: 2001 **4-ilovadan:**

16-banddan:

* O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – davlat va ijro etuvchi hukumat boshlig'i sifatida fuqarolarning huquq va erkinliklariga, Respublika Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarga rioya etilishiga kafil bo'lishni, Respublika suvereniteti, xavfzizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza qilish, milliy davlat tuzilishi masalalariga oid qarorlarni ro'yobga chiqarish borasida zarur chora-tadbirlar belgilanishini, xalqaro munosabatlarda Respublika nomidan ish ko'rishni bilish;

2012-yildagi 16-banddagi farq:

* O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – davlat va ijro etuvchi hukumat boshlig'i (*O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-aprelda qabul qilingan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 89-moddasiga kiritilgan tuzatishqa muvofiq Prezident faqat Davlat boshlig'i*)³⁰ sifatida fuqarolarning huquq va erkinliklariga, Respublika Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarga rioya etilishiga kafil bo'lishni, Respublika suvereniteti, xavfzizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza qilish, milliy davlat tuzilishi masalalariga oid qarorlarni ro'yobga chiqarish borasida zarur chora-tadbirlar belgilanishini, xalqaro munosabatlarda Respublika nomidan ish ko'rishni bilish;

2000-yildan 2012- yilga qadar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bir qator o'zgartishlar, qo'shimchalar va tuzatishlar kiritildi. O'qituvchi mavzuni tushintiurish jarayonida mana shu yangiliklardan boxabar bo'lishi lozim va bu o'quvchilarga mavzuni tushintirishda muhim masala hisoblanadi.

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'ZBEKISTON. T. 2012-yil 1-bet.

II. BOB. “Jamiyat, davlat va huquq” mavzusining ta’lim texnologiyasi.

2.1. “Jamiyat, davlat va huquq” mavzusini o’qitishda ta’lim texnologiyalarining tutgan o’rni.

Ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o’quv jarayonida qo’llashga bo’lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga ortib bormoqda, bunday bo’lishining sabablaridan biri shundaki, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o’quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o’rgatilgan bo’lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o’zlari qidirib topishlariga, mustaqil o’rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o’zlari chiqarishlariga o’rgatadi³¹.

Ta’lim tizimida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini bir-biridan ajratish mumkin emas, chunki yangi pedagogik texnologiyalarning keng joriy etilishi ta’lim paradigmasini o’zgartiradi va faqat zamonaviy axborot texnologiyalarigina yangi pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlaridan samarali foydalanishni ta’minlaydi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining *"Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida"* gi qaroriga asosan mamlakatimizda ta'lim jarayonini qayta ko'rib chiqish va isloh qilish borasida ko'pgina samarali ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Jumladan barcha fanlar, shu qatori *"Huquqshunoslik"* fani bo'yicha ham yangi dasturlar tuzilib ularga muvofiq yangi va jahon standartlariga javob beradigan darsliklar yaratilib kelinmoqda. *"Huquqshunoslik"* fanini o’qitishda o’quvchilar uchun maxsus ishlab chiqilgan umumiy darsliklar bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda qonun va qonun osti hujjatlari, yuridik adabiyotlarining o'rni beqiyosdir. O'quvchiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda qonun va qonun osti hujjatlari, yuridik adabiyotlar asosida yangi bilim berish o'quvchilar o'rganayotgan mavzuning ijtimoiy, siyosiy va o'ziga xos xususiyatlarini to'liq anglab yetishiga hamda

³¹ M. F. Lafasov, F. M. Sattorova Manaviyat asoslarini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T. 2010-yil. 3-bet.

ularning huquqiy tafakkurini shakllantirishga yordam beradi. Bu esa "*Huquqshunoslik*" faninning oldida turgan bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biridir.

O'quvchiga yangi "*Jamiyat, davlat va huquq*" mavzusini tushuntirish jarayonida hamda o'quvchi mavzuning mohiyatini to'liq tushunib yetishida zamonaviy pedagogik texnologiyalarining o'rni beqiyosdir.

Yangilanayotgan pedagogik tafakkur talablariga ko'ra zamonaviy dars o'quv muassasasining mulkiy mansubligidan qat'iy nazar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim:

- * *ta'limning tarbiyaviy maqsadlarga bo'ysundirilganligi;*
- * *o'quvchini komil shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilganligi;*
- * *ilmiyligi va izchilligi;*
- * *tarbiyalanuvchining faolligi va mustaqilligini ta'minlashga qaratilganligi;*
- * *insonparvarlik yo'nalishiga egaligi;*
- * *tizimlilik;*
- * *bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishga qaratilganligi;*
- * *amaliy ahamiyatga ega ekanligi va h.k.*

O'rta maxsus bilim yurtlarida "*Huquqshunoslik*" fanidan "*Jamiyat, davlat va huquq*" fanini o'qitish metodlari jadal sur'atlar bilan rivojlantirilib borilayotgan bir vaqtda, o'quvchilarga darsni ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda qonun va qonun osti hujjatlari, yuridik adabiyotlar asosida, ham zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda olib borishni tashkil qilish shakllarini ishlab chiqish bugungi kun uchun dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Zero, o'rganilayotgan mavzu haqida ma'lumot beruvchi birlamchi hamda birinchi darajali qonun va qonun osti hujjatlari, yuridik adabiyotlar asosida ishlash salohiyatini shakllantirgan holda o'quvchi tafakkurida mamlakat taraqqiyoti va ertangi kuni uchun muhim bo'lgan

"Huquqshunoslik" fanining to'laqonli salohiyatini yaratish mumkin. Bu esa o'qituvchidan har tomonlama mukammal bilim bilan birgalikda o'ziga xos qobiliyat - maxsus fan va pedagogik malakani talab etadi.

O'qituvchi o'quv jarayoniga kirib borar ekan undagi pedagogik va psixologik bilimlar miqdori, dars berish metodikasi va texnologiyasini egallaganlik darajasi uning ilmiy ba'zasidan ham birinchi o'rinda turishini inobatga olish lozim.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan bir davrda buyuk kelajak sari qadam tashlanar ekan, yoshlarni yagona milliy g'oya, milliy mafkura atrofida birlashtirish, tarbiyalash zarurati tug'ildi. Zero O'zbekiston Respublikasi Prezidenti **I.A.Karimov** ta'kidlaganidek, *"...xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo'lga kiritgach, o'z taqdirining chinakam egasi, o'z tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatning sohibiga aylandi"* - ayni vaqtda tarixiy-madaniy merosni tiklash - *"milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon"* dir. Bu vazifalarni ado etishda esa turli ta'lim muassasalarining o'rni beqiyosdir.

Mustaqillik yillarida o'zbek xalqining millatparvar, xalqparvar, ma'rifatparvar vakillarining ezgu niyatlari amalga oshmoqda. Mamlakat hayotidagi bunday real o'zgarishlar o'z navbatida xalqning an'anaviy moddiy va ma'naviy madaniyatini bugungi kun nuqtai-nazaridan qarab, chuqur va ilmiy asosda izchil o'rganishni taqozo etmoqda. Mustaqil davlat sifatida huquqiy - demokratik jamiyat qurilar ekan avvalambor yosh kadrlarni har tomonlama rivojlantirish, ularda Vatanga, ona yurtga sadoqat, milliy istiqlol g'oyasi hamda xalq tarixiga hurmat g'oyalarini shakllantirish, o'quvchilar tarbiyasida milliy mafkuraning rolini asos sifatida rivojlantirish zarurdir.

"Huquqshunoslik" fani juda qiziqarli va o'ta muhim fanlardan biri hisoblansada, uni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda qonun va qonun osti hujjatlari, yuridik adabiyotlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham dars jarayonida "Jamiyat, davlat va huquq" mavzusini

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda qonun va qonun osti hujjatlari, yuridik adabiyotlarga asoslangan holda o'qitish bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etib olib borilgan "Huquqshunoslik" fani o'zining ko'p qirraliligi va bir-birini takrorlamaydigan o'ziga xos jihatlari bilan an'anaviy darslardan ajralib turadi.

Bunda esa yuqorida ta'kidlab o'tilganidek o'qituvchining pedagogik mahorati, o'ziga xos uslubi va fan metodikasi asosiy o'rin egallaydi.

Ta'lim mazmunining sifatini takomillashtirish pedagogikadagi bugungi kunda yangi pedagogik innovatsiya yo'nalishisiz mumkin emas. O'rta maxsus ta'lim tizimida innovatsion jarayonlar innovatsion xususiyati yangiliklar kiritish, o'qituvchilarning kasbiy imkoniyatlari bilan belgilanadi.

O'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanar ekan, albatta bunda birinchi navbatta fan, mavzu, o'quvchilar yoshi, kasbiy yo'naltirilganligi va shu kabi bir necha jihatlarga ahamiyat berishi lozim. "Huquqshunoslik" faniga yo'naltirilgan o'rta maxsus ta'lim muassasalarida darsni olib borish metodi boshqa ta'lim muassasalarnikidan tubdan farq qiladi. Ya'ni o'quvchilarga "Huquqshunoslik" fani nafaqat yaxlit bir predmet balki, alohida bir kurs sifatida ham o'qitiladi.

"Huquqshunoslik" fanidan *"Jamiyat, davlat va huquq"* mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan olib borish bugungi kunda o'zini oqlagan metodlardan biri bo'lib hisoblanadi. Zero, zamonaviy pedagogik texnologiya o'ziga xos va potensial yaratilgan pedagogik natijalarga erishish uchun, pedagogik tizimning barcha tashkiliy tomonlariga aloqador nazariy va amaliy (ta'lim doirasida) tadqiqotlar sohasi sifatida belgilanadi.

O'rta maxsus ta'lim tizimida ham o'qituvchi ham o'quvchini o'z ustida ishlashga qiziqtiruvchi, harakatini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi texnologiyalardan biri o'yinli texnologiyalar hisoblanadi. S.A.Shmakov

fikricha o'yinli texnologiyalar nafaqat natijaga erishish, balki xohishga ko'ra faoliyat jarayonining o'zidan zavqlanish uchun qo'llaniladi.

Muammoni hal etish texnologiyasi.

Muammoni hal qilish uslubi yoki muammoga qaratilgan uslubi – muammoni aniqlash va uni hal qilishning eng maqbul yo'llarini topishga o'quvchining tayyorgarligi tekshirib ko'rish uchun qo'llaniladi. O'quvchi bunda birinchi bo'lib muammoni aniqlab oladi. So'ngra muammoni yechish uchun axborotlarni izlaydi. Izlanish chog'ida o'quvchi kerakli jurnallar, monografiyalar, darsliklar, qo'llanmalardan va internet tizimidan foydalanishi mumkin. Olingan axborotlarningi ishonchliligini baholash, uni mahalliy sharoitlarda tatbiq etsa bo'lishini idrok etishi lozim. O'quvchi olingan ma'lumotlardan xulosa chiqarishi va ularni amalda tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'ladi.



Tarozi texnologiyasi

Tarozi texnologiyasi munozarali, murakkab mazmunli mavzularni o'rganishda qo'llash mumkin. U tanqidiy tafakkur, mantiq, ijodiy, improvizatsiya, fikran tajribalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu texnologiya dalillash qobiliyatini rivojlantirish, o'z dalillarini yozma va og'zaki shaklda ishonchli va lo'nda ifodalashni shakllantiradi, o'z nuqtai nazarini himoya qiladi, muxoliflarni ishontiradi, munozara madaniyatiga o'rgatadi.



KEYS TEXNOLOGIYASI.

Texnologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda keysning tavsifnomasi:

Keys texnologiyasi asosiy manbai kabinetli, lavhali bo'lib, hayotiy vaziyatlar asosida bayon etiladi. Keysning asosiy ob'ekti shaxsga yo'naltirilgandir. Bu tashkiliy institusional keys bo'lib, ma'lumotlar vaziyatlar va savollar asosida tuziladi. Hajmi o'rtacha, tizimlashtirilgan bo'lib, treningga mo'ljallangan o'quv mavzusi bo'yicha bilim va ko'nikmalar hosil qilishga qaratilgan. Didaktik maqsadlarga ko'ra keys muammolarni taqdim qilishga, ularni hal etishga, tahlil qilish va baholashga qaratilgan.

Keys stadi inglizcha sase – to'plam, aniq vaziyat, stadi -ta'limdir.

Keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzidagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etishga asoslaniladi. Keys stadi - ta'lim, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan ta'lim texnologiyasidir.

Keys texnologiyasidan "Huquqshunoslik", fanidan hamda murabbiylik soatlarida foydalanish mumkin.

“MUAMMOLI VAZAIYAT” jadvali

<i>Vaziyatdagi muammolar turi</i>	<i>Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari</i>	<i>Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari</i>

2.2. “Jamiyat, davlat va huquq” mavzusining texnologik xaritasi.

Maruza mashg’ulotining ta’lim texnologiyasi

Mavzu: 2	Jamiyat, davlat va huquq
-----------------	---------------------------------

Darsni olib borish texnologiyasi

Mashg’ulot vaqti 2 soat	<i>O’quvchilar soni 25-30 gacha</i>
<i>O’quv mashg’ulotining shakli</i>	Ma’ruza.
Ma’ruza rejasi	1. Jamiyat tushunchasi. 2. Davlat tushunchasi va uning kelib chiqishi to’g’risidagi qarashlari. 3. Huquq tushunchasi va uning mohiyat.
Ma’ruza mashg’ulotining maqsadi: O’quvchilarda jamiyat tushunchasi, davlat tushunchasi va uning kelib chiqishi to’g’risidagi qarashlar hamda huquq tushunchasi va uning mohiyat haqida tushunch hosil qilish.	
Pedagogik vazifalar: 1. Jamiyat tushunchasi haqida ma’lumot berish. 2. Davlat tushunchasi va uning kelib chiqishi to’g’risidagi qarashlarini izohlash. 3. Huquq tushunchasi va uning mohiyatini tushuntirish.	O’quv faoliyatining natijalari: 1. Jamiyat tushunchasi haqida ma’lumot ega bo’ladi. 2. Davlat tushunchasi va uning kelib chiqishi to’g’risidagi qarashlar haqida ma’lumotga ega bo’ladi. 3. Huquq tushunchasi va uning mohiyati haqida tushuncha hosil qiladi.
<i>Ta’lim berish usullari</i>	Ma’ruza, savol-javob, “Aukcion savol” texnologiyasi hamda “Assisment” metodi va guruhlariga bo’linib ishlash
<i>Ta’lim berish shakllari</i>	Jamoaviy hamda guruhlarda ishlash
<i>Ta’lim berish vositalari</i>	Ma’ruza matni, darslik, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Kompeyuter, proyektr, ekran va doska
<i>Ta’lim berish sharoiti</i>	Huquq o’quv xonasi
<i>Monitoring va baholash</i>	Reyting tizimi, nazorat: savol-javob

**Jamiyat, davlat va huquq mavzusidagi ma’ruza mashg’ulotiga
texnologik xarita**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O’qituvchi	O’quvchi
1. O’quv mashg’ulotiga kirish 40 daqiqa	1.1. Tashkiliy qism: Salomlashish, yo’qlama qilish, o’quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish, uyga vazifani so’rash (<i>og’zaki, Jumanji metodi va konspekt daftarlarini tekshirish orqali</i>) hamda o’tilgan mavzuni so’rash. 1.2. Yangi mavzuni va uning rejasini e’lon qiladi 1-ilova 1.3. Mashg’ulot o’tkazish shakli va baholash mezonlarini e’lon qiladi 2-ilova	1.1. Tinglaydi, javob beradi va topshiriqni bajaradi. 1.2 Yozib oladi va tinglaydi. 1.3 Tinglaydi
2. Asosiy bosqich 30 daqiqa	Mavzu yuzasidan <i>Power Point</i> dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzuning asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.1. Mavzu rejasining birinchi “<i>Jamiyat tushunchasi</i>” punkti bo’yicha ma’ruza qiladi. 3-ilova “<i>Auksion savol</i>” texnologiyasidan foydalanish. 4-ilova 2.2.Mavzu rejasining ikkinchi “<i>Davlat tushunchasi va uning kelib chiqishi to’g’risidagi qarashlar</i>” punkitini bayon etadi. 5-ilova “<i>Assisment</i>” metodini qo’llash orqali guruh faolligini oshirish. 6-ilova 2.3.Mavzu rejasining uchinchi “<i>Huquq tushunchasi va uning mohiyati</i>” punkitini bayon etadi. 7-ilova	Tinglaydi 2.1. Tinglaydi va yozib oladi Tinglaydi va javob berdi 2.2.Tinglaydi va yozib oladi Topshiriqni bajaradi 2.3. Tinglaydi, yozib oladi
3.Umumlashti ruvchi bosqich 10 daqiqa	3.1 Mavzu umumlashtiriladi va umumiy xulosa qilinadi. O’quvchilarga o’tilgan mavzu yuzasidan savollar berib yangi mavzu mustahkamlaydi. 3.2 Mavzu yuzasidan o’quvchilar uchun tushunarsiz bo’lgan atama va tushunchalarga qisqacha izoh beradi.	3.1. Tinglaydi va javob beradi 3.2. Tinglaydi
4. Yakuniy bosqich 10 daqiqa	4.1 O’tilgan mavzu bo’yicha o’quvchilarning savollariga javob beradi va mavzuga xulosa qiladi. 4.2 Mavzuni o’rganish uchun uyga qo’shimcha vazifa beradi. 8-ilova	4.1. Savol beradi va tinglaydi 4.2. Topshiriqni yozib oladi

Mavzu: Jamiyat, davlat va huquq

Reja.

1. Jamiyat tushunchasi.
2. Davlat tushunchasi va uning kelib chiqishi to'g'risidagi qarashlar.
3. Huquq tushunchasi va uning mohiyati.

<i>№</i>	<i>Savolning to'liq va aniq yoritilishi 0-5 ball</i>	<i>Misollar bilan muammoga yechim topishi 0-5 ball</i>	<i>Guruh a'zolarining faolligi 0-5 ball</i>	<i>Jami ball</i>
1.				
2.				
3.				
4.				
5.				
6.				

15 – 13 ball – “a’lo” , 12 – 10 ball – “yaxshi”, 9 – 6 ball – “qoniqarli”

Jamiyat tushunchasi.

Jamiyat – muayyan ehtiyoj va manfaatlariga ko'ra birlashgan kishilarning ma'lum tarzda tashkil topgan majmuasi. Jamiyat birlashishga moyil bo'lgan guruhlar, sinflar, qatlamlardan iborat. Davlat jamiyatning eng muhim tarkibiy elementidir. U jamiyatda asosan siyosiy funksiyalarni bajaradi. Jamiyat bilan davlat aslo bir narsa emas. “Jamiyat” tushunchasi “Davlat” tushunchasidan kengdir.

Jamiyat – o'zini-o'zi tashkillovchi va boshqaruvchi tizim. Jamiyat-maqсадlari, orzu-intilishlari, yashash tarzlari mushtarak bo'lgan odamlar oilasidan iborat insonlarning ijtimoiy muhiti, jamiyat moddiy tarkibiy qismi, jamiyat kishilarning hayot tarzlari, faoliyatining barcha turlari va ularning natijalarini qamrab oladi, jamiyat kishilar hayoti va faoliyati o'tmish, hozir va kelajakdan iborat vaqt mezonini aks ettiradi, jamiyat odamlararo ob'yektiv ijtimoiy aloqa va munosabatlarning mahsuli va ko'rinishi, jamiyat bir butun yaxlit olamning tarkibiy qismi, borliq, tabiatning o'ziga xos ko'rinishi, odamlar uyushmasining maxsus shakli, jamiyat bir butunlikni, yaxlitlikni tashkil qiluvchi ijtimoiy tizimdir. “Jamiyat” tushunchasi “Davlat” tushunchasiga nisbatan keng tushuncha.

Auksion savol texnologiyasi

Darsda o'quvchilar faolligini oshirish va bilimini mustahkamlash maqsadida bu usuldan foydalaniladi, ya'ni bunda guruh 3 guruhga bolinadi va mavzuga oid atamaning izohi 3 marta o'qiladi. 1- marta o'qilgach uchchala guruh vakillari guruh bilan kelishgan holda o'z javoblarini e'lon qilishadi. Javob to'g'ri yo noto'g'ri bo'lishidan qat'i nazar o'quvchilarni chalg'itish maqsadida va o'z javobida qat'i qoladimi yo'qmi aniqlash uchun atama izohi 3 marta o'qiladi. Har o'qilganda atamaning ma'nosiga yaqin izoh berib borilaveradi va 3- o'qishdan so'ng uchchala guruh vakillaridan guruh tomonidan maqullangan javobni eshitgach to'g'ri javobni e'lon qiladi va baholash mezoniga asoslangan holda to'g'ri javob bergan guruhlar baholanadi. Bu texnologiyani dars vaqtida o'quvchilar zerikib qolmasligi uchun o'tilgan mavzuni so'rash jarayonida yoki yangi mavzuni tushuntirish jarayonida qo'llash mumkin. Bu texnologiya o'quvchini darsdagi qiziqishini, faolligini oshirishda va darsdan chalg'imasligini oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Auksion savol

Qadimdan insoniyat bu ish bilan jiddiy shug'ullanib keladi, lekin tadqiqotchi olimlarning har biri unga o'z qarashlarini singdirib borgan. Vaqt o'tishi bilan u haqidagi tushunchalar o'zgarib borgan, uning mohiyatini tushuntirishga ham turlicha qoidalar asosida yondashib kelingan. U xususida bugungi kunda yuridik adabiyotlarda turlicha ta'rif berilgan bo'lsada, ularning har birida o'ziga xos ma'no-mazmun mavjud. Laurens Fridmanning aytishicha, u tushuncha *shishadek nozik, sovun ko'pigidan hosil bo'ladigan pufaklarday omonat, vaqtdek tutqich bermas* ko'pdan-ko'p ma'nolarga ega.

Savol: Qanday tushuncha ta'riflanayapti? Javob: **Huquq**

Davlat tushunchasi va uning kelib chiqishi to'g'risidagi qarashlar.

Davlat- jamiyatning shakllangan siyosiy instituti.

Davlat— bu suverenitetga, boshqaruv mexanizmiga hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishning maxsus apparatiga ega bo'lgan shuningdek, huquq normalarini yaratishga qodir, jamiyat siyosiy tizimining, turli shaxslar va tashkilotlarning hamkorlikdagi faoliyatini va o'zaro munosabatini yo'naltiruvchi siyosiy institutdir.

Davlat- suverenitetga, boshqaruvning hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishning maxsus apparatiga ega bo'lgan, shuningdek, huquq normalarini yaratishga qodir bo'lgan ommaviy hokimiyatning siyosiy-hududiy tashkiloti.

Davlat- butun mamlakat miqyosidagi hokimiyatning maxsus boshqaruv va majburlov apparatiga ega bo'lgan, barcha uchun majburiy qonunlar chiqaradigan va suverenitetga ega bo'lgan yagona siyosiy tashkilot.

Davlat- jamiyat siyosiy tizimining odamlar, guruh, sinif va tashkilotlarning hamkorlikdagi faoliyatini va o'zaro munosabatini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va nazorat qiluvchi asosiy institut.

Davlat- hokimiyatning bosh instituti. Hokimiyat davlat orqali o'z siyosatini amalga oshiradi.

Davlat tushunchasi va uning kelib chiqishi to'g'risidagi qarashlar.

Davlat jamiyat taraqqiyotining ma'lum bosqichida paydo bo'lgan, davlat hokimiyat vakolatini amalga oshiradigan siyosiy tashkilot sifatidayuzaga kelgan. Bugungi kunda davlat tushunchasi, uning paydo bo'lishi to'g'risida turli nazariyalar mavjud bo'lib ular ichida diniy, shartnomaviy, materialistik, patriarxal va sinfiy kabi qator huquqiy maktablar mavjud. Davlat turli hududlarda turlicha davrlarda yuzaga kelgan va insoniyat tarixiy, ijtimoiy taraqqiyoti davomida shakllanib borgan. Lekin hozirga qadar huquqshunos olimlar tomonidan davlat qachon va qanday holda shakllanganligi hamda uning tub mohiyati xususida yagona to'xtamga kelinmagan. Davlatning paydo bo'lishi haqidagi qarashlarning sharqiy yo'nalish nazariyotchilari va g'arbiy yo'nalish nazariyotchilariga ham ajratishadi.

Davlat kishilik jamiyati taraqqiyotining muayyan bosqichida paydo bo'ladi. Ushbu bochqichda ilgari mavjud bo'lgan ijtimoiy mahsulotni teng taqsimlash tizimi natija bermaydi, natijada jamiyatning yanada rivojlanishi uchun boshqarish bilan shug'ullanadigan Sharq jamiyatlaridagidek yoki Evropa mamalakatlaridagidek siyosiy va iqtisodiy sohalaridagi nufuzli qatlamining ajralib chiqishi zarurati tug'iladi. Bu esa, jamiyatning tabaqalanishiga olib keladi va shunda dastlab (ibtidoiy jamoa tuzumda) jamiyatning barcha a'zolariga tegishli bo'lgan hokimiyat siyosiy mazmun kasb etadi, ya'ni u eng avvalo imtiyozli ijtimoiy guruhlar, sinflar manfaatiga xizmat qila boshlaydi. Binobarin, davlatning paydo bo'lishi hamisha ommaviy hokimiyatning mazmuni o'zgarib, siyosiy hokimiyatga aylanishi bilan bog'liq bo'lgan. Bu esa, hokimiyatning ibtidoiy jamoa tuzumidan farqli o'laroq, eng avvalo, jamiyatning imtiyozli qismi va sinfiy manfaatlarga xizmat qilishini bildiradi. Bunday holatda sinfiy yondashuv mazkur hokimiyatni tavsiflash, bunday davlatning mohiyatini ta'riflashga imkon yaratadi.

“Assisment” metodi.

TEST. Jamiyat-bu... A. muayyan ehtiyoj va manfaatlariga ko'ra birlashgan kishilarning ma'lum tarzda tashkil topgan majmuasi B. birlashishga moyil bo'lgan guruhlar, sinflar, qatlamlar C. o'zini-o'zi tashkillovchi va boshqaruvchi tizim D. Barcha javoblar to'g'ri Jamiyatning shakllangan siyosiy instituti bu... A. Huquq B. Davlat C. Partiya D. Parlament	DUPLET SO'ROV 1. Muayyan jismoniy yoki yuridik shaxsga tegishli bo'lgan huquq bu... Sub'yektiv huquq 2. Tenglik, adolat va erkinlik g'oyaiariga asoslanib, ko'p jihatdan qonunchilikda va boshqa huquqiy manbalarda o'z ifodasini topuvchi hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi hamma uchun majburiy huquqiy normalar yig'indisi bu... Huquq	HUQUQIY ATAMA – bu, eng avvalo, fuqarolik jamiyatidir. Chinakam demokratiyaning oliy mazmuni – shaxslararo, millatlararo, davlat va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni uyg'unlashtirishdan ibprat. Bunda inson va jamiyat, jamiyat va davlat hokimiyati tinch-totuv yashaydi. Demokratik jamiyat – yuksak darajadagi huquqiy madaniyatga ega bo'lgan fuqarolardan iborat bo'lgan jamiyat bu... Fuqarolik jamiyati
AMALIY KO'NIKMA O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yo'nalishi to'g'ri tuzilgan qatorni ketma-ketligini aniqlang. 1. Inson 2. Davlat 3. Jamiyat	ORTIQCHASINI TOPING Huquq Jamiyat Boshqaruv Davlat Fuqarolik jamiyati Demokratik jamiyat	SIMPTOM Huquqning asosiy belgilari bu ... * davlat yo'li bilan o'rnatilishi; * barcha uchun majburiyligi; * huquq normalarining qonunlar va boshqa muayyan manbalarda ifodalanishi; * sub'yektiv huquqlar orqali harakat qilish; * davlat tomonidan ta'minlanganligi.

Huquq tushunchasi va uning mohiyati.

Davlat va huquqning kelib chiqishi to'g'risidagi masala ko'p asrlar davomida ko'plab mutafakkir faylasuflar, huquqshunoslar, iqtisodchilar va tarixchilarni o'ylantirib kelgan.

“Huquq” iborasi kundalik hayotimizda ko'p qo'llaniladigan tushuncha bo'lib, “haq”, “haqiqat” so'zlaridan olingandir.

Huquqning paydo bo'lishida asosan uchta bosqichni ajratib ko'rasatish mumkin.

Birinchi bosqich - huquqning paydo bo'lish bosqichi. U asosan ishlab chiqaruvchi iqtisodiyot shakllari vujudga kelayotgan jamiyatga xosdir.

Ikkinchi bosqich – ushbu tartibga solish tizimi qoidalarining shakllanishi davri. Bu bosqich ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotning turli shakllari to'liq o'rnatilgan jamiyatlarda mavjud edi.

Uchinchi bosqich – bir qator ilk davlatlarda huquqning yozma tarzda muayyan tizimga solinishi, ya'ni kodifikatsiyalashishidir.

Huquq tushunchasi va uning mohiyati.

Huquq -davlat tomonidan belgilangan yoki ruxsat etilgan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan umummajburiy xulq-atvor qoidalari tizimi.

Huquq - ijtimoiy munosabatlarni normativ tartibga soluvchi tizim bo'lib, uning asosiy qismi qonunchilikda o'z ifodasini topadi, rasmiy manbalarda normativlik va rasmiy xarakterga ega bo'lib, qonuniylik va adolatparvarlik qoidalariga asoslanadi.

Huquq - tenglik, adolat va erkinlik g'oyalariga asoslanib, ko'p jihatdan qommchilikda va boshqa huquqiy manbalarda o'z ifodasini topuvchi hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi hamma uchun majburiy huquqiy normalar yig'indisidir. Hozirgi zamon huquqshunoslari huquq tushunchasini o'z asarlarida turlicha talqin etmoqda, qarashlarning xilma-xilligi asosida esa fikrlar tobora takomillashib bormoqda.

Huquqning asosiy belgilari quyidagilar:

- * davlat yo'li bilan o'rnatilishi;
- * barcha uchun majburiyligi;
- * huquq normalarining qonunlar va boshqa muayyan manbalarda ifodalanishi;
- * sub'yektiv huquqlar orqali harakat qilish;
- * davlat tomonidan ta'minlanganligi.

* * *

U Y G A V A Z I F A

1. Mavzuni rejalar asosida konspektlashtirish.

2. Quyidagi savollarga javob toppish.

Davlatning mohiyati nimada?

Davlatning kelib chiqishi haqida qanday nazariyalar bor?

3. Quyidagi tushunchalarning izohini toppish.

Jamiyat	?
Davlat	?
Huquq	?
Fuqarolik jamiyati	?
Demokratik jamiyat	?
Huquqiy davlat	?

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, ushbu mavzuni o'rganish jarayonida o'quvchilar jamiyat, davlat va huquq to'g'risidagi nazariy tushunchalar, ya'ni o'rganilish uslublari, huquqiy va ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rni, vazifasi, davlat va huquqning paydo bo'lish tarixi, vujudga kelish nazariyalari, belgilari, tamoyillari, mohiyatiga oid bilimlarni, shuningdek, "Jamiyat, davlat va huquq" mavzusini o'qitishda pedagogik texnologiyalarning tutgan o'rnini, "Jamiyat, davlat va huquq" mavzusida pedagogik texnologiyalarni qo'llashda ularning bir-biridan farqi va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi. Bu mavzuda pedagogik texnologiyalarni qo'llashi orqali o'qituvchi o'quvchilarda mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish, mavzu yuzasidan mustaqil izlanish va o'z huquqiy bilim saviyalarini shakllantirish va kengaytirishdagi bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ta'lim jarayonining samaradorligi har qanday ta'lim muassasi o'qituvchisining yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ilmiy va amaliy asoslarini qay darajada egallaganligi bilan belgilanadi.

Mavjud ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va kadrlar tayyorlash milliy dasturini zamonaviy ilmiy tafakkur yutuqlariga, ijtimoiy tajribaga asoslangan holda, uzluksiz ta'lim tizimini barcha shakldagi ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini ta'minlovchi ilg'or ilmiy-metodik texnologiya sifatida amalga oshirish bugunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. O'rta maxsus ta'lim muassasalarida *"Jamiyat, davlat va huquq"* mavzusini o'qitish o'qituvchidan yuqori malaka hamda maxsus pedagogik bilimni talab etadi. Ushbu mavzuni o'qitishda o'qituvchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash bilan bir qatorda, o'quvchilarga mavzu yuzasidan mustaqil fikrlay olish, huquqiy hujjatlardan foydalanish salohiyatini shakllantira olishi ham kerak. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek *"Ilm maskanlarida faqatgina fikr erkinligi, chinakam ijod va izlanish hukmron bo'lmog'i lozim"*. Bu esa o'qituvchidan ulkan matonat va tinmay o'z ustida ishlashni talab etadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar hayotimizga jadal kirib kelayotgan bir vaqtda "Jamiyat, davlat va huquq" mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, o'quvchilarda qonunlar, yuridik adabiyotlar bilan mustaqil ishlay olish ko'nikmasini shakllantirish ularni erkin fikrlash, mavzu yuzasidan o'zining mustaqil fikrini bildirib olish, mavzuning nazariy jihatini xolisona ilmiy tahlil etish xususiyatlarini rivojlantirishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O'zbekiston T: 2012-yil
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Axborotnomasi, Toshkent, 1997, № 9 . № 466-1-son qarori
3. I. A. Karimov. Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora tadbirlar to'g'risidagi Qarori. Toshkent oqshomi. №105(12.166). 2012-yil 29- may.
4. I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T; 1997-yil.
5. I. A. Karimov." Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir" T.3 – T; O'zbekiston. 1996-yil..
6. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari T.. «O'zbekiston»,.
7. Karimov I.A. O'zbekiston Koastitutsiyasi-biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir.// Xalq so'zi.-2009 yil. 6-dekabr.
8. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir/ -T.: O'zbekiston, 2010.
9. I.Karimov "Eng asosiy mezon-hayot haqiqitini aks ettirish" T., "O'zbekiston", 2009
10. A. Saidov, U. Tadjixanov, X. Odilqoriyev Davlat va huquq asoslari. Darslik. Sharq. T; 2002-yil
11. X.T. Odilqoriyev, I. T. Tutleyev, N. P. Azizov, A. A. Tadjiyev, X. X. Odilqoriyev Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. Sharq T; 2009-yil
12. A.Saidov, U Tojixanov «Davlat va huquq nazariyasi». T..Adolat. 2001.

13. Tojixanov U, Saidov A «Davlat va huquq asoslari» o'quv qo'llanma T.. 1999 y.
14. X. Odilqoriyev, R. Qayumov, X. Nazarov, M. Lafasov, Z. Karimov, O. Omonova O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. Darslik. Sharq. T; 2003-yil.
15. X.T.Odilqoriyev "Davlat va huquq nazariyasi" Toshkent. TDYUI. 2000 -yil
16. H. H. Mahmudov, R. T. Berdiyarov, G. M. Isroilova Huquqshunoslik. Voris-nashriyot. T; 2010-yil
17. J. Yoqubov, E. Hayitboyev. Huquqshunoslik. Darslik. Yangi asr avlodi. T; 2006-yil
18. I. Karimov, K. Tulenova, S. Valiyeva. Itimoiy falsafa. 2008-yil.
19. H.H. MAHMUDOV, R.T. BERDIYAROV, G.M. ISROILOVA. HUQUQSHUNOSLIK. «Voris-nashriyot» Toshkent – 2010-yil.
- 20.«Davlat va huquq nazariyasi» A A'zamxo'jayev va Sh.O'razayev tahriri ostida T.,
21. Qarang: Davlat va huquq nazariyasi. A.A'zamxo'jayev va Sh. O'razavyev tahriri ostida - T.: 1992
22. Tojixonov U, Saidov A. Davlat va huquq asoslari. o'quv qo'llanma. -T.: 1999
23. M. F. Lafasov, F. M. Sattorova Manaviyat asoslarini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T. 2010-yil.
24. Ro'zinazarov Sh.N. Yuridik fanlarining rivojlanishi va zamonaviy muamrnolari Mas'ul muharrir: H.R.Rahmonqulov.-T.: 2006

